

ISHSIZLIK, UNING TURLARI VA O'ZBEKISTONDA BANDLIK MUOMMOLARI

Tursunov Husniddin Tolliboyevich

TDIU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrası katta o'qituvchisi

Ilyasov Abdul-Aziz Abdulxamidovich

*TDIU Menejment fakulteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ishsizlik har qanday davlat uchun iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Mehnat bozorining samarali faoliyati aholining turmush darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda aholi sonining o'sishi, texnologik o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlar fonida bandlik muammolari dolzarb masalaga aylangan. Ishsizlikning turli krinishlari, uning sabablari va oqibatlarini chuqur rganish bilan birga, mamlakatimizda ish bilan ta'minlash byicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ishsizlikning turlari, uning O'zbekistondagi krinishlari va bandlikni yaxshilash byicha olib borilayotgan ishlarga batafsil txtalamiz. Shu sababli bu muammoni chuqur rganish va samarali yechimlarni izlash jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maqolamizda ishsizlikning sabablari, turlari va oqibatlari haqida sz yuritiladi hamda uni kamaytirish byicha samarali ynalishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat bozori, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), BMT standartlari, mehnatga qobiliyatli aholi, Ijtimoiy farovonlik, aholi daromadlari.*

Kirish: Bugungi kunda ishsizlik iqtisodiyotning asosiy muomalaridan bir bo'lib, biror bir mamlakat iqtisodiyotning bu "nuqson"idan hali qutulgani yo'q. Chunki ishsizlik juda ko'p muammolarga zamin yaratadi - jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo'ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Bundan tashqari, ishsizlik nafaqat oilalarning daromadini kamayishiga, balki odamlarning o'zini o'zi qadrlashini yo'qolishiga ham sabab bo'ladi va kelajakka bo'lgan umidsizlik hissi paydo bo'ladi. Eng yomoni shaxsning shaxsiyati yo'qolishiga olib keladi. Bu esa jamiyatda jinoyatchilik, giyohvandlik va kasalliklarning o'sishiga yordam beradi. Ishsizlikning ma'lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo'lishi mumkin. Ishsizlar ko'payishi davlatni zaif qiladi, zaif davlatda esa ishsizlar yanada ko'payadi. Shuning uchun, ishsizlik moamosini o'rganish va unga yechimlarni izlash nafaqat muhim, balki juda dolzarb masaladir. Lekin dunyoning xoh

rivojlangan, xoh rivojlanayotgan biror davlatini oladigan bo‘lsak unda albatta ishsizlik muammosi borligini ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda, ishchi kuchining ish joyi bilan ta‘minlanmaganligi va natijada, uning biron-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo‘lmasligining muayyan holati tushuniladi. Odatda jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko‘ra ishlab chiqishadi. Xalqaro tashkilotlarning bergan ta‘rifiga binoan “ishsiz shaxslar” deganda — ishga ega bo‘lmagan, ishlashga tayyor ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. Bundan tashqari turli mamlakatlarda fuqaroni ishsiz deb atash uchun qo‘shimcha shartlar ham qo‘yiladi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarini olsak, so‘nggi bir hafta davomida ish bilan band bo‘lmagan, so‘nggi to‘rt hafta davomida ish joylashishga harakat qilgan ya‘ni ish beruvchiga yoki ish bilan taminlash davlat organlariga murojaat qilgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan fuqarolar ishsiz deb e‘tirof etiladilar. Yaponiyada ishsiz deb, so‘nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa, so‘nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shu vaqt mobaynida ish qidirgan yoki kasalligi tufayli ish qidirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan fuqarolar tushuniladi. Ayrim mamlakatlarning qonun hujjatlariga ko‘ra ishsiz deb, ishdan bo‘shatilgan va mehnat stajiga ega bo‘lganlar tushuniladi.⁵²

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta‘kidlaganidek: “Ishlashni xohlovchilarni hammasini ish bilan ta‘minlabgina qolmasdan, eng maqbul, ijtimoiy yo‘naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida mukammal ishchi kuchi bozorini shakllantirish, ishga joylashishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni to‘la hisobga olish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi”.

Ishsizlik muammosini mavjudligishi bozor iqtisodiyoti talablarining ajralmas hususiyatlaridan biridir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini hal etishdan asosiy maqsad – aholi ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Shu o‘rinda Prezidentimiz I.Karimov ta‘kidlab o‘tganlaridek: “Iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi”.⁵³

O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli ya‘ni o‘n olti yoshdan boshlab to pensiya

⁵² T.T. Jo‘rayev Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2018, 512 bet.

⁵³ O zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

bilan taminlanish huquqini olguncha bo‘lgan davr, ish va ish haqiga ega bo‘lmagan, ish qidiruvchi sifatidaq mahalliy mehnat organida ro‘yhatga olingan, mehnat qilishga kasbga tayorlashga va qayta tayyorlovdan o‘tishga, malakasini oshrishga tayyor shaxslar tushuniladi. Mamlakatlarda mehnatda bandlik va ishsizlikni ko‘p yillik o‘rganish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mehnatga yaroqli aholining 94-95 foizi mehnatda band bolsa, iqtisodiyot meyorida rivojlanayotgan hisoblanadi.⁵⁴ Ammo shuni ta’kidlash kerakki, bozor iqtisodiyotida ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda ham odatda ikkita holat mavjud: odamlarning ishsizligi va ish o‘rinlarining ishsizligi, ya’ni ishsiz odamlar bilan bir qatorda ishchisiz ish o‘rinlari ham mavjud. Kimdir muttasil ish izlaydi, qaysidir tashkilotlar esa malakali xodimga zo‘r. Xo‘sh, nega shunaqa? Albatta, maosh kamligi, ish sharoitlarining og‘irligi, geografik noqulaylik kabi jiddiy sabablar bor. Lekin tanganing ikkinchi tarafiga e’tibor berilsa, boshqa jiddiy sabablarni ham ko‘rish mumkin: sabr-toqat yo‘qligi, malaka yetishmasligi, noreal orzular shular jumlasidan. Shuningdek hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlar ya’ni mehnat bozorining doimiy to‘ldirib boradiganlar ish beruvchilarga imkonsiz talablar qo‘yib nafaqat qimmatli vaqtlarini balki yaxshi imkoniyatlarini yo‘qotishmoqda. Chunki hech qaysi korxona yosh mutsaxsislarni ishi yo‘qligi yoki diplom uchun birdaniga katta oylik maosh taklif qilolmaydi. Har qanday ishga va maoshga talabgor zarur bo‘lsa eng quyi pog‘onadan boshlab o‘zini ko‘rsata bilishi lozim. Chunki qiyinchiliklar insonni toblaydi, mutaxassis sohaga oid zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Eng muhimi – vaqt o‘tgani sayin o‘z sohasiga bo‘lgan tajribasini oshirib boradi. Bu esa kelajakda eng bilimli va yetuk kadr bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining 4.1-bandi Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma- bosqich oshirish deb nomlanib, unda "yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining. eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini ta’minlash, mehnat bozori infrastrukturasi mutanosibli va rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish" lozimligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tgan. Shunga ko‘ra, bandlik va ishsizlik, ularning turlari va darajasini tadqiq etishga qaratilgan mazkur mavzu o‘ta dolzarb hisoblanadi.⁵⁵

Ishsizlik—bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O‘zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan me’yoriy kuchga ega

⁵⁴ O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

⁵⁵ O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://www.gazeta.uz>

bo'ldi (1998-yil 1-mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi). Ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun quyidagi to'rt shart mavjud bo'lishi lozim;

- Fuqaro mehnatga qobiliyatli bo'lishi va amaldagi qonun hujjatlariga binoan pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmasligi kerak. Huquqiy jihatdan mehnat qilish qobiliyatining quyi darajasi, Mehnat kodeksining 77-moddasiga muvofiq 16 yosh deb belgilangan.

- Fuqaro ishga va ish haqiga ega bo'lmasligi lozim. Agar fuqaro asosiy ishini yo'qotgan lekin o'rindoshlik asosida boshqa korxonada ishlayotgan bo'lsa, bunda u ish bilan band bo'lgan deb hisoblanadi. Nafaqalar, alimentlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlar, banklarga qo'yilgan mablag'larga hisoblangan foizlar ish haqiga kirmaydi. Xuddi shunday pensiya va stipendiyalar ham ish haqi tarkibiga kirmaydi, lekin pensiya oluvchi fuqarolar ijtimoiy jihatdan ximoyalanganliklari, ishlab chiqarishdan ajralgan holda stipendiya olib o'qiyotganlar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanishlari sababli, bunday fuqarolar ishsiz shaxs deb e'tirof etilmaydilar

- Fuqaro ishlashga tayyor bo'lishi lozim. Fuqaroning ishlashga tayyor ekanligini, uning mahalliy mehnat organiga ish qidirib rasmiy murojaat qilishi, belgilangan muddatlarda mehnat organida qaytadan ro'yxatdan o'tib turishi va mehnat organlari tomonidan taklif qilingan maqbul ishni qabul qilish holatlari tasdiqdaydi. Homilador ayollar, agarda ularning homiladorlik davri yigirma sakkiz haftadan oshmagan bo'lsa, ular mehnatga qobiliyatli deb hisoblanadilar va homiladorlikning bu davrida ular ishsiz shaxs deb e'tirof etilishlari kerak.

- Fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim.⁵⁶

Ishsizlik, bu salbiy hodisaning sabablari, turlari, oqibatlar iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Bugungi kunga kelib, tadqiqotchilar "qo'shimcha" ramkalarining ko'rinishini noaniq izohlaydilar. Mavjud sabablar orasida:

1. Maltusiylik, yoki aholining ko'pligi;
2. Marksizm, ya'ni kapitalning organik tuzilishining o'sishi;
3. Yuqori darajali ish haqi;
4. Kamchilikda mavjud bo'lgan keyneschilik umumiy talab.

Jon Meynard Keynes (1883-1946) aholini ish bilan bandligi bo'yicha yaratilgan iqtisodiy nazariyaning asoschisidir. Uning ishsizlik haqidagi asari ya'ni "Aholining ish bilan bandligi, foiz va pulning umumiy nazariyasi" bo'lib, ushbu asar 1936-yilda bosilib chiqqan. Keynes G'arb iqtisodiyotchilari orasida birinchi bo'lib ishsizlik to'g'risidagi tasavvurni to'liq o'rganib chiqdi, u bunday ishsizlik yalpi samarali talab yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi degan xulosaga keldi. Keynes nazariyasining asosini samarali talab tamoyili tashkil etadi.

⁵⁶ A.V.Vahabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyeva. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik – T.: Baktria press, 2015.

Agar yalpi talab tadbirkor kutgan darajadan pastroqqa tushsa va shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoni bo'lmasa, ishlab chiqarish qisqarishi ro'y beradi, bu esa ishsizlikka olib keladi deb ta'kidlagan edi Keyns. Aksincha, yalpi talab kutilgan darajadan yuqoriroq bo'lsa, ishlab chiqarish rivojlanishga turtki oladi. Muvozanat o'rnatilishiga olib keladigan yalpi talab darajasi samarali hisoblanadi. J. Keyns ishsizlikni sababiga quyidagich ta'rif bergan "Ishsizlikning davosi sifatida ish haqini pasaytirish g'oyasini qat'iy inkor etib, o'ziga investisiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste'mol xarajatlarini - bundan ham so'ngisi - umumiy talabning asosiy qismi, ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chiqadi". Bu nazariya bundan 100 yilcha oldin yaratilganiga qaramay, hozirda ham amaliy va nazariy fikrlari bilan iqtisodiyotda hukmronlik qilmoqda.⁵⁷

Monetar maktab namoyandalari (M. Fridmen, E. Felps va boshqalar) bozor iqtisodiyotini o'z-o'zidan tartiblanuvchi tizim sifatida baholab, undagi narx mexanizmining o'zi bandlikning oqilona darajasini belgilab berishini ta'kidlaydilar. Bunday tizimga davlat tomonidan har qanday aralashuv bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmini ishdan chiqaradi. Davlatning pul vositasida yalpi talabni rag'batlantirishi esa pirovardida inflyatsiya jarayonlarining kuchayishini keltirib chiqaradi.⁵⁸

Monetaristlar iqtisodiyotda doimo ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'lishini ta'kidlab, uni «ishsizlikning tabiiy me'yori» deb ataydilar. Bandlikning bu «tabiiy daraja»dan chetlanishi faqat qisqa muddatli tavsif kasb etadi. Bandlikni barqarorlashtirish bo'yicha siyosat ishsizlik darajasini uning tabiiy me'yoridan chetlanishiga, ishlab chiqarish hajmi va band bo'lganlar sonining tebranishlariga qarshi kurashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ishchi kuchi bozorini muvozanatga keltirish uchun monetaristlar asosan pul-kredit siyosati dastaklaridan foydalanishni tavsiya etadilar. Institutsional-sotsiologik maktab namoyandalari (T. Veblen, J. Danlop, J. Gelbreyt, L. Ulman va boshqalar) ishchi kuchi bandligi borasidagi muammolar turli ko'rinishdagi institutsional islohotlar yordamida hal etilishi mumkin, degan qoidaga asoslanadilar. Ular bu muammoning faqat makroiqtisodiy jihatdan tahlili bilan chegaralanmaydilar. Shuningdek, ular ishchi kuchi tarkibi va unga tegishli holda ish haqi darajasidagi ijtimoiy, kasbiy, tarmoq, yosh, jins, etnik va boshqa tafovutlar ta'sirida ishchi kuchi bozorida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni izohlashga harakat qildilar. Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi (M. Beyli, D. Gordon, K. Azariadis) o'zida neoklassik hamda keynscha talqinlarni uyg'unlashtiruvchi konsepsiya hisoblanadi. Konsepsiya mualliflari, bir tomondan, pul ko'rinishidagi ish haqi qat'iyligi to'g'risidagi keynscha qoidani qabul qiladilar va ishchi kuchi bozoridagi muvofiqlashuv

⁵⁷ A.V. Vahabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyeva. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik – T.: Baktria press, 2015.

⁵⁸ T.T. Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2018, 512 bet.

narxlar (ya'ni, ish haqi) hisobiga emas, balki ishlab chiqarish moddiy hajmi va bandlikning o'zgarishi hisobiga amalga oshirishini ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, bu qat'iylikning o'zi xususiy iqtisodiy manfaatlar ostida harakat qiluvchi individlarning xatti harakatidan keltirib chiqariladi. Mazkur nazariyaning asosida tadbirkorlar va ishchilar o'zaro uzoq muddatli shartnoma munosabatlariga kirishishlari to'g'risidagi qoida yotadi. Mazkur shartnoma huquqiy jihatdan taqozo etilgani uchun emas, balki har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy jihatdan foydaliligi sababli paydo bo'ladi. Firma ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrida mehnatga haq to'lash hajmini kamaytirmaydi, ishlab chiqarishning o'sishi davrida esa malakali ishchilarga ish haqini oshirmaydi. Pul ko'rinishidagi ish haqining o'zgarishi bir tekisda boradi. Ish haqi darajasi individlar xatti harakatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq natijasi sifatida ma'lum me'yorda qat'iy tus oladi. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi (R. Buae, G. Standing) 70-yillarning oxirida, nisbatan rivojlangan G'arb mamlakatlarida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirilayotgan davrda keng tarqaldi. Uning asosida ishchi kuchi bozorini tartiblashdan voz kechish, bandlikning moslashuvchan, funksional jihatdan individuallashtirilgan va nostandart shakllariga (qisman bandlik, to'liq bo'lmagan ish haftasi yoki ish kuni, qisqa muddatli shartnomalar, uyga ish olish va h.k.) o'tishning zarurligi to'g'risidagi qoidalar yotadi. Bunday yondoshuv iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishga yollash, ishdan ish haqi darajasidagi ijtimoiy, kasbiy, tarmoq, yosh, jins, etnik va boshqa tafovutlar ta'sirida ishchi kuchi bozorida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni izohlashga harakat qildilar. Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi (M. Beyli, D. Gordon, K. Azariadis) o'zida neoklassik hamda keynscha talqinlarni uyg'unlashtiruvchi konsepsiya hisoblanadi. Konsepsiya mualliflari, bir tomondan, pul ko'rinishidagi ish haqi qat'iyligi to'g'risidagi keynscha qoidani qabul qiladilar va ishchi kuchi bozoridagi muvofiqlashuv narxlar (ya'ni, ish haqi) hisobiga emas, balki ishlab chiqarish moddiy hajmi va bandlikning o'zgarishi hisobiga amalga oshirishini ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, bu qat'iylikning o'zi xususiy iqtisodiy manfaatlar ostida harakat qiluvchi individlarning xatti harakatidan keltirib chiqariladi. Mazkur nazariyaning asosida tadbirkorlar va ishchilar o'zaro uzoq muddatli shartnoma munosabatlariga kirishishlari to'g'risidagi qoida yotadi. Mazkur shartnoma huquqiy jihatdan taqozo etilgani uchun emas, balki har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy jihatdan foydaliligi sababli paydo bo'ladi. Firma ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrida mehnatga haq to'lash hajmini kamaytirmaydi, ishlab chiqarishning o'sishi davrida esa malakali ishchilarga ish haqini oshirmaydi. Pul ko'rinishidagi ish haqining o'zgarishi bir tekisda boradi. Ish haqi darajasi individlar xatti harakatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq natijasi sifatida ma'lum me'yorda qat'iy tus oladi. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi (R. Buae, G. Standing) 70-yillarning

oxirida, nisbatan rivojlangan G'arb mamlakatlarida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirilayotgan davrda keng tarqaldi. Uning asosida ishchi kuchi bozorini tartiblashdan voz kechish, bandlikning moslashuvchan, funksional jihatdan individuallashtirilgan va nostandart shakllariga (qisman bandlik, to'liq bo'lmagan ish haftasi yoki ish kuni, qisqa muddatli shartnomalar, uyga ish olish va h.k.) o'tishning zarurligi to'g'risidagi qoidalar yotadi. Bunday yondoshuv iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishga yollash, ishdan bo'shatish va bandlik shakllarining turliligi va moslashuvchanligi; ish vaqtini tartibga solishning moslashuvchanligi; ish haqini tabaqalashtirish asosida tartibga solishning moslashuvchanligi; ishchilarni ijtimoiy himoyalash usul va shakllari, shuningdek, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifning tebranishiga ishchi kuchi hajmi, tarkibi, sifati va narxi muvofiqlashuvining moslashuvchanligi hisobiga erishiladi. Umuman olganda, moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi tadbirkor va ishchilar o'zaro munosabatlarining turli shakllarini mavjudligini taqozo etib, ishchi kuchi bozorining yalpi xarajatlarini ratsionallashtirish, foydalilik darajasini oshirish va yuqori harakatchanligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu nazariyaga sodiq qolgan neoklassik iqtisodchilarning fikricha, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ishchilar soni ular ish haqi olish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ziddir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi oshishi bilan bandlik kamayadi. Xo'sh, ishsizlik muammosini qanday bartaraf etish mumkin? Ish haqi miqdorini kamaytirish.

Hozirgi vaqtda barcha mamlakatlarga xos bo'lgan salbiy ijtimoiy iqtisodiy hodisa ma'lum tasnifga bo'ysunadi. Ishsizlikning asosiy turlari;

- ishqalanish;
- davriy;
- tizimli.

Bunday salbiy hodisa o'sha davrda ishlab chiqarishning pasayishi natijasida yuzaga keladi. iqtisodiy rivojlanish, bu ishlab chiqarish sektoriga etarli miqdorda sarmoya kiritilmasligi bilan tavsiflanadi. Inqiroz davrida davriy ishsizlik eng yuqori darajaga etadi. Minimal qiymat bu hodisa ishlab chiqarishning ko'tarilishi davrida kuzatiladi. Albatta bor har xil turlari va ishsizlik shakllari, ammo davriylik aholi uchun eng og'riqli hisoblanadi. Bu jismoniy shaxsning daromadining pasayishiga va natijada uning farovonligining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, jamiyatda davriy ishsizlik mavjudligi qo'llanilishini ko'rsatadi ishlab chiqarish ob'ektlari to'liq emas. Va bu xazinaga soliq tushumlarining kamayishini nazarda tutadi.

Aholining ish bilan bandligidagi davriy o'zgarishlarning sabablari iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bosqichlarida davlat o'tishi bilan bog'liq. Masalan, Rossiyada

shunga o‘xshash hodisa milliy iqtisodiyotning tubdan yangi, bozor sharoitlariga o‘tishi tufayli paydo bo‘ladi.⁵⁹

Strukturaviy ishsizlik tor malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan kerakli bo‘sh joyni izlashdan kelib chiqadi. Aslida, mamlakatimizda misollar mavjud bo‘lgan tizimli ishsizlik majburiydir. Bu milliy iqtisodiyotning u yoki bu sohasidagi o‘zgarishlar, shuningdek, eng yangi, yuqori texnologiyali sohalarning rivojlanishi va eskirgan tarmoqlarning qisqarishi natijasida vujudga keladi.

Rossiyadagi ishsizlikning o‘ziga xos xususiyatlari nimada? Bunday hodisaga misollar, o‘rta maxsus yoki oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlar, o‘zlari uchun munosib vakansiya topa olmaydiganlarga tegishli. Bu esa, malakasiz ishchilarga talab ortib borayotgan paytda sodir bo‘lmoqda.

Xulosa. Ishsizlik muammosi har bir davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta’sir krsatadigan dolzarb masala hisoblanadi. Uning turli shakllari — tuzilma, tsiklik, friksion va fasl ishsizligi — mehnat bozoridagi muammolarni yanada murakkablashtiradi. zbekiston sharoitida aholi sonining tez sur’atlar bilan sishi, yoshlar bandligi masalasi va mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash kabi omillar bandlik muammolarining asosiy sabablari sifatida namoyon blmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, jumladan, yangi ish rinlarini yaratish, kichik va rta biznesni qllab-quvvatlash, ta’lim tizimini isloh qilish hamda kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish kabi choralar muammoni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bandlik darajasini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar, texnologik rivojlanish va xususiy sektorni yanada rag‘batlantirish zarur. Shunday qilib, ishsizlikka qarshi samarali kurashish orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligini ta’minlash mumkin. Ma’lumki, O‘zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o‘rtasida aholisining jadal o‘sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Bunday vaziyat o‘z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, buning uchun esa, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish borasida uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. Aks holda aholining turmush darajasining pasayib borishi, mamlakatda ishsizlar sonining ortib borishi bilan bog‘liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida mehnat bozori va mehnat bozorida vujudga keladigan muammolarga jiddiy qarab aholi bandligiga va jamiyat rivojiga qaratilgan bir qancha muhim chora tadbirlar olib borilmoqda

⁵⁹ O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) T.T. Jo‘rayev Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2018, 512 bet.
- 2) A.V.Vahabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyeva. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik –T.: Baktria press, 2015.
- 3) zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 4) zbekiston Davlat statistika qmitasi ma‘lumotlari
- 5) <https://www.gazeta.uz>
- 6) <https://www.stat.uz>
- 7) <http://www.gov.uz>